



DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

Jo'rabek Ashurov

E-mail: jashurov381@gmail.com

Behruz Akramov

E-mail: abehruz1013133@gmail.com

Nurilla Nurmuhammadov

E-mail: Nurullanurmukhmmadov@gmail.com

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar
fakulteti 3-kurs MMT-95 talabalari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliqlar davlat tomonidan amalga oshiriladigan asosiy iqtisodiy vositalardan biri ekanligi hamda davlat budjet-soliq siyosatining iqtisodiyotda tutgan o'rni yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, moliyaviy-iqtisodiy nazariya, budjet-soliq siyosati va budjetning huquq va majburiyatlarining bajarilishini ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchilik ruhida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Budjet-soliq siyosati strategiyasini belgilash, davlat daromadlar, xarajatlari va qarzlarini boshqarish kabi masalalarning nazariy va ilmiy jihatlarini o'rganish natijasi asosida budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashni takomillashtirish masalasi ilgari surilgan.

***Kalit so'zlar:** davlat byudjeti, bilvosita soliqlar, daromadlar, xarajatlar, soliq yuki*

KIRISH.


Budjet-soliq siyosati iqtisodiy siyosatning yadrosi hisoblanadi hamda o'zida jamiyat institutlari va aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yaqqol ifodalaydi. Davlat budjeti siyosatini yuritishda ikki dastakka egadir. Bular davlat daromadlari va xarajatlaridir.

Moliyaviy siyosatni professorlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlar quyidagicha ta'riflaganlar: "Takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo'naltiriladigan maqsad va vazifalarning yechilishini aniqlashga moliyaviy siyosat deyiladi".

1-rasm

2021-2024 йилларда солиқ юки (ЯИМ га нисбатан улуши) ва давлат бюджети даромадлари динамикаси

■ Давлат бюджети даромадлари, трлн сўм
— ЯИМ га нисбатан улуши



Daromadlarni daromad guruhlari o'rtasida osonroq qayta taqsimlash asosiy hisoblanadi to'g'ridan-to'g'ri soliqqa tortish uchun dalil, boshqa tomondan. Soliq siyosati davlatning soliq munosabatlarini tashkil qilishdagi chora-tabirlari, faoliyatlar yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'z mustaqil soliq siyosatiga ega bo'la oladi. Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanishiga xar tomonlama faol ta'sir ko'rsatish mumkin. Soliqlar pul munosabatlari bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi ekan, soliq siyosati xam iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir. Soliq tizimi deganda moxiyati jixatidan bir xil bo'lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig'indisi tushuniladi.

Tizim - bu yig'ma tushunchadir. Bu tushunchada soliqlarning bir-biri bilan bog'liqligi xam ifoda etilgan. Soliq tizimini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:


Soliq tizimini soliq obyektiga qarab uch guruhga bo'lish mumkin: aylanmadan, daromaddan va mulklar qiymatidan olinadigan soliqlar. aylanmadan olinadigan

solisqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, konlardan foydalanganligi uchun soliq, bojxona boji kiradi. Daromaddan olinadigan solisqlarga foyda solig'i va daromad solisqlari kiradi. Mulklardan olinadigan solisqlarga mol-mulk solig'i va yer solisqlari kiradi. Iqtisodiy moxiyatga qarab to'g'ri va egri solisqlarga bo'lish mumkin. To'g'ri solisqlar bevosita daromad oluvchi mulk egasining daromadlaridan (foyda) olinadi. Bunday solisqlar huquqiy va xaqiqiy soliq to'lovchi bitta shaxs bo'ladi. Soliq ilgarida aniq belgilangan bo'ladi. Uning manbasi bo'lib korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati natijasida erishilgan moliyaviy yakun xisoblanadi. Axoli solisqlarida esa soliq manbasi bo'lib to'g'ridan-to'g'ri axolining daromadi xisoblanadi. Foyda (daromad) solig'i, yer solig'i va daromad solig'i to'g'ri solisqlarning eng yirigi hisoblanadi..

Egri solisqlar korxonalar va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy yakuniga bog'liq bo'lmaydi. Ular sotilayotgan tovarlar va xizmatlar oborotiga (baxosiga) ustama tarzda belgilanadi. Ular so'zsiz tovar qiymati va xizmat summasini oshiradi va iste'molni kamaytiradi. Bu solisqlarni ba'zan iste'mol solisqlari deb ham ataladi. Chetdan qaraganda ularni go'yo maxsulot sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'layotgan bo'ladi. Aslida esa ularning xaqiqiy to'lovchisi tovar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar bo'ladi. Egri solisqlar guruhiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari kiradi. Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekt, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, solisqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Акциз солиғи прогнози – 22 769 млрд сўм, жорий йилда кутилаётган тушумларга нисбатан 38,9 % ошиши кутилмоқда.

АКЦИЗ СОЛИҒИНИНГ МАҲСУЛОТЛАР БЎЙИЧА ПРОГНОЗЛАРИ



2-rasm¹-Aksiz solig'i prognozi 2024-yil

Biz avvalo soliq tizimi va soliq solish tizimi tushunchalarni bir-biridan farqini bilishimiz zarur. Bu yerda nazariy jixatdan soliq tizimi soliqlar yig'indisi tushuniladi. Soliq solish tizimi esa tashkiliy jixatdan, tuzilish usullari yig'indisi tushuniladi, Ya'ni soliq solish tizimi amaliy uslublar yig'indisidir. Shunday qilib, soliq solish tizimi deb, Oliy majlis tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarni tuzilish usullari va tamoyillari yig'indisiga aytiladi. Bu tizimning urni jamiyatning ijtimioy-iqtisodiy tizimi bilan aniqlanadi.

Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekt, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, soliqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Soliq subyekti bu soliq munosabatlarni tashkil qiluvchilar. Bularga asosan

¹ <https://openbudget.uz/api/v2/info/file/fb22326ffbc83f71fee6ec3a628a3cec>
www.pedagoglar.org

soliq to'lovchilar: yuridik shaxslar korxonalar, tashkilot, firma va jismoniy shaxslar-axoli kiradi. Ikkinchi tomondan soliq subyektiga davlat kiradi, Ya'ni soliq oluvchi. Soliq obyekt - bu soliq solinadigan daromad, narsa (buyum), mulk, qiymati, tovar, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar. Ko'pincha soliq nomi obyekt nomi bilan ataladi. Masalan, yer solig'ida yoki daromad solig'ida. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi tushunchalari o'rtasida farq bor. Soliq tizimi nazariy jihatidan soliqlar turlarining yig'indisidan iborat, soliq solish tizimi esa soliqqa tortish amaldagi uslublari yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning soliqlari to'g'risida" gi qonunga binoan 1992-yildan boshlab yangi soliq tizimi joriy etildi. Bu tizimning shu davrgacha amal qilgan tizimdan tub farqi shundaki Respublikamiz xududida ayrim soliq turlari bekor qilinib, ularning qonuniga yangilari kiritildi. 1992- yilgacha 62 yil davomida o'zgarmasdan xizmat qilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy salmog'i bo'lgan oborot solig'i o'rniga qo'shilgan qiymat solig'i, foydadan ajratma to'lovi o'rniga yalpi daromaddan daromad solig'i va yangidan Respublikadan chetga chiqarib sotiladigan tovarlarga soliq, cheklangan tovar turlariga aksiz solig'i va mulk soliqlari joriy etildi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, budjet-soliq siyosati mamlakat moliya tizimi samarali faoliyatining garovi hisoblanadi. Budjet-soliq siyosatining yaxlitligiga erishish mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, samarali budjet siyosatini yuritishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Hozirgi paytda budjet soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashning omillari va mezonlari baholashning yagona tizimlashtirilgan metodologiyasi va asoslari bo'yicha nazariy qarashlarning mukammal tizimi mavjud emas. Mavjud nazariy izlanishlar budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash unga ta'sir etuvchi omillar hamda mezonlarni to'liq yoritib berolmaydi.

Ko'rsatib o'tilgan takliflar va tadqiqot natijalari mamlakatimizda budjet-soliq tizimidagi islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, deb hisoblash mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
11. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
12. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
13. Ғ'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.

14. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
15. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
16. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
17. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
18. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
19. О‘роқов У. Ҳ., қизи Раҳимова Н. Ҳ. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 229-239.
20. Dilmurod o‘g‘li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA‘SIRI." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.1 (2024): 19-23.
21. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG‘ALLIK MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 20-21.
22. Rahimova N. et al. Davlat xaridi munosabatlarining subyektlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 934-940.
23. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 178-183.